

## MEHNAT BILAN YUZAGA CHIQQAN ISTE'DOD



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10367101>

PhD., dotsent **Nargiza ISMATULLAYEVA**,  
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası mudiri

*Har yo‘l, har sohaning bir piri bo‘lur,  
Ehtirom dil ahlin tadbiri bo‘lur,  
Har ishda ustozning bir siri bo‘lur,  
Kashfi asror bo‘lmas, ustoz bo‘lmasa.*

**Mirzo Kenjabek**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev badiiy tarjimaning madaniy hayotimizdagi ahamiyatini ta’kidlab shunday deydi: “Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta’kidlash lozim... O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, (ularni) tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda ham ilmiy-pedagogik, ham samarali amaliy, ijodiy faoliyat olib borayotgan tarjimashunos, turkshunos olim, jonkuyar ustoz, ijodkor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası professori v.b. Xayrulla Hamidovdir.

Shogirdlariga ham bilim, ham ota-ona mehrini bera olgan ustozlar inson hayotida sanoqli bo‘ladi. Hayotimdagi ana shunday insonlardan biri Xayrulla Hamidovdir. Ustozimizning 60 yoshlarini qutlash men uchun sharafdir. Xayrulla akadagi bilim, mehnatkashlik, keng dunyoqarash, notiqlik, kamtarlik, pokdillik, xullas, uzoq sanash mumkin bo‘lgan fazilatlarining bir insonda jamlanganligi kishini hayron qoldiradi.

Men institutning xitoy filologiyasi yo‘nalishidan to magistraturada lingvistika mutaxassisligini tamomlagunimga qadar doim shu institutda qolib dars berishni o‘z oldimga maqsad qo‘ygandim. Magistraturaning 2-kursida o‘qiyotganimizda institutda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası tashkil etilayotganligi va kafedraga xitoy tilidan dars berishga kursdoshlarim Ustajalilov Jamshid va Yakubov Jasurni qabul qilishayotganini eshitib, chin dildan havas qildim, “Bu kafedraga faqat tarjimachilik faoliyatida pishgan o‘qituvchilarni olishsa kerak” deb o‘yladim. 2010-yil magistraturani bitirayotganimda Xitoy filologiyasi kafedrası mudiri Lola Sultanova sentyabrdan menga dars soatlari ajratishlarini aytib qoldilar. U paytda oilada ikkinchi farzandimizni kutayotgandik. Lola opadan uzr so‘rab, farzandim ikki yoshga yetgach ishga tushishga qaror qildim. 2012-yili avgust oyida Xitoy filologiyasi kafedrasidan

dars soatlari mavjudligi haqida so‘raganimda, o‘quv soatlari iyun oyidayoq taqsimlanib, o‘quv yuklamasi tasdiqlanganligini bildirishdi. Shunda rahmatli ustozim Ismatulla Bekmurotov “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida mudiri Xayrulla Hamidovga meni xitoy tili o‘qituvchisi sifatida tavsiya qildilar. Baxtinga, bu kafedrada xitoy tili fanidan 0,5 stavkalik soatlar bor ekan. O‘shanda ilk marotaba Xayrulla Hamidov bilan uchrashib gaplashdik. Ular: “Mening qarshiligim yo‘q, lekin rektorimiz Abdurahim Mannonov bilan suhbatdan o‘tasiz. Agar biror ko‘zga ko‘rinadigan yutuqlaringiz bo‘lsa, domlaga ko‘rsating. Domla yosh mutaxassislarining bilim va qobiliyatlariga qaraydilar”, dedilar. Bu so‘zlarni eshitib quvonib ketdim. Ikki yillik farzand parvarishi chog‘ida rahmatli ustozim Majid Mahmutxodjayev maslahati bilan Konfutsiyning “Suhbat va mulohazalar” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilib qo‘ygan edim. Ustozim Majid akaga qo‘ng‘iroq qilib bu xabarni yetkazdim. Rektor bilan suhbatga ustozim ham keldilar va men haqimda ijobiy fikr bildirdilar. Shu tariqa hayotimda uch buyuk ustozim Majid Mahmutxodjayev, Ismat Bekmurotov, Xayrulla Hamidovning qo‘llab-quvvatlashi bilan mana shu ta‘lim dargohida dars berishdek katta maqsadimga erishdim. Bu ustozlarimning yodi doim qalbimda. Ilm cho‘qqisiga intilishimga sababchi insonlar Majid Mahmutxodjayev, Ismat Bekmurotov, Xayrulla Hamidov, Shoira Usmanova va Jasur Ziyamuhamedovlar mening **eng mukammal Ustozlarimdir**. Haqiqiy ustozlikni men shu insonlardan o‘rganyapman.

Ilk ishga qabul qilinganimda ustozim X.Hamidovning kun sayin yangi qirralarini ochar, birinchi tassurotlarim tobora o‘zgarib borardi. Ularning kafedradagi rahbarlik faoliyati haqida gapirsam, o‘z ishlariga juda mas‘uliyatli, talabchan edilar va muhimi, hech kimdan o‘z yordamlarini ayamas, o‘z ishlanmalarini qizg‘anmas edilar. 2011-yili ochilgan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida o‘qitiladigan fanlar men uchun yangi edi. Ayrim fanlar bo‘yicha fan dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari X.Hamidov, N.Xodjayeva, N.Azzamova tomonidan ishlangan bo‘lsa-da, men yangi ish boshlagan 2012-yili yana yangi fanlar (“Sinxron tarjima masalalari”, “Falsafiy matnlar tarjimasi” va b.) kiritildi. Bu fanlarning o‘quv materiallari noldan boshlash kerak edi. Shunda Xayrulla aka xuddi farzandlaridek, biz yangi o‘qituvchilarni ham yo‘naltirib, ko‘mak berib ulg‘aytirdilar. To‘g‘ri, ish bor joyda kamchilik, muammolar bo‘ladi. Xayrulla aka talabalarga dars o‘tganlarida, kafedrada majlis o‘tkazganlarida ovozlari biroz balandroq chiqardi. Xayrulla akaning shu baland ovozi bilan dakki eshitsam, xafa bo‘lib qolardim. Bir marta ishdan bo‘shash haqida ariza ham yozganim esimda. Shunday paytlarda ular: “Mening gapirishim o‘zi shunaqa, xafa bo‘lmanglar. Urganim ugra oshi, so‘kkanim so‘k oshi”, deb ko‘nglimizni ko‘tarib qo‘yardilar. Hozir shu voqealarni Xayrulla aka, Nilufar Xodjayeva bilan kulishib eslaymiz.

Xayrulla Hamidovning tarjimashunoslik va turkshunoslik sohasida xizmatlari beqiyosligini e'tirof etmoq kerak. Bu insonni tarjimashunoslikning baquvvat ustunlaridan biri deb bilaman. Men o'sha 2012-2013-o'quv yili davomida arang bir dona ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsam, Xayrulla akaning kafedrada ham mudirlik, ham o'qituvchilik funksiyalarini bajarib turib 2 ta o'quv qo'llanma, 17 ta ilmiy maqola yozib nashr ettirganliklariga qoyil qolgan, ularning shunday mehnatkashligi, ilmiy mushohadasining kuchliliga tasanno aytganman. Xayrulla Hamidovning hozirga qadar 9 ta monografiya, 4 ta ilmiy va ilmiy ommabop risola, 20 dan ortiq o'quv adabiyoti, tarjima asarlari, ularning muharrirligidagi bir qator kitoblar nashr etilgan. Ularning qilayotgan ishlari bir nechta "professorlik"ka ham yetishi aniq.

U kishining boy va sarmazmun ilmiy faoliyati haqida so'z yuritilar ekan, olimning hozirgi turk tili, tarjimashunoslik va sharqshunoslikka oid o'ndan ortiq monografiyasi, ilmiy va ilmiy ommabop risolalari, yaratgan o'nlab o'quv adabiyotlari, 250 ga yaqin ilmiy maqola va tezislarni e'tirof etish joiz. Shuningdek, olim tuzgan 20dan ortiq xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlari, turli tarjima to'plamlari, talaba almanaxlari va xrestomatiyalar, xususan joriy yilda nashr ettirgan salkam 60 bosma taboqdan iborat ikki antologiyasi ("Turk adabiyoti antologiyasi"<sup>1</sup> va "Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji)"<sup>2</sup>)ni alohida ta'kidlash kerak bo'ladi. Bu X.Hamidovning o'zbek-turk tarjimachiligiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolatdir. Uning turk tilidan qilgan Yashar Kamol, Xolida Adib Adivar, Umar Sayfiddin, Said F.Abasiyoniy va Aziz Nesin kabi turk adiblarning roman, qissa va hikoyalari tarjimalari, o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod, Isojon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilarning turk tiliga qilgan qissa va hikoyalari tarjimalari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Omon Matjon va Muhammad Yusuf kabi mashhur shoirlar qalamiga mansub she'rlarning turk tiliga qilgan tarjimalari O'zbekistonda va Turkiya Respublikasida yaxshi ma'lum. Xususan, 2020 yil O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Turkiyaning Xalqaro TÜRKSOY madaniyat tashkiloti ko'magida Anqarada X.Hamidovning "*Said Ahmet. Seçme Hikâyeler*" (Said Ahmad. Tanlangan hikoyalar) tarjima kitobi Anqarada nashr etildi va ushbu kitob Turkiyadagi o'zbek adabiyoti ixlosmandlariga tuhfa qilindi. Bundan tashqari, olim rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ruschaga ham asarlar, o'quv adabiyotlarini tarjima qilgan.

<sup>1</sup> Turk adabiyoti antologiyasi. 1-qism. – Toshkent: TDSHU, 2023. – 452 b

<sup>2</sup> Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji). – Taşkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023. – 464 s.

E'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilk bor Toshkentda nashr etilgan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" jamlanmasining 2 jildi (45- va 51-jildlar<sup>3</sup>) Xayrulla Hamidov tomonidan tuzilgan. Bundan tashqari, ushbu jamlanmaning 47-jildida uning turk tilidan qilgan tarjimalari (Aziz Nesin hikoyalari) o'rin olgan.

X.Hamidovning o'zbek tarjimashunosligi asoschilaridan G'aybulla Salomov va Jumaniyoz Sharipovlarning tarjimashunoslikka oid darslik va monografiyalarini to'la tahrir qilib, lotin alifbosida qaytadan chop ettirgan hamda yangi avlod o'quv va ilmiy adabiyotlari sifatida oily ta'limga joriy qilgan<sup>4</sup>. Hamkasblar Xayrulla Hamidov nomini eshitganda tinimsiz ishlaydigan ijodkor olimni tasavvur qilishadi. Qiziq bir gap, u kishi hatto majlislarda ham noutbukda ishlash bilan birga, u yerda bo'layotgan har bitta ma'ruzani diqqat bilan eshitayotgan bo'lardilar. Ularga masala yuzasidan fikr bildirish, savol so'rash navbati berilganida, hech ikkilanmay, xuddi diqqat bilan eshitib turganday so'zlayveradilar. Ham majlis yoki tadbir jarayonida bo'lish, ham ijod bilan shug'ullanishdek qobiliyatga havas qiladiganlar ko'p. Ancha vaqtdan beri kafedramizda ishlaydigan aksariyat o'qituvchilar u kishidan o'rnak olib, turli tadbirlarda o'z noutbuklari bilan kirib ishlaydigan bo'lganlarini ko'raman. Bizda "Siniqdan boshqa hamma narsa yuqadi" degan naql bor. Xayrulla akaning mehnatkashlik fazilatlarini "yuqsa" bu biz uchun katta yutuq.

Xayrulla Hamidovning insoniylikdagi 3 ta "parvarligi"ni qadrlayman. Ustoz chin ma'noda insonparvar, oilaparvar, bolaparvardir. U kishining talabalariga jonkuyarligi, doim yordamga tayyorligi, darslariga vijdonan yondoshishi, hammaga birday adolatli munosabatda bo'lishi ularning bolaparvarligidan dalolat, deb bilaman.

Xayrulla aka mudirlik chog'larida kafedramizda erkak o'qituvchilar yo'q edi (bir-ikki o'rindoshdan tashqari). Institut domlari: "Xayrulla aka o'zining kafedrasiga erkaklarni yo'latmaydi, ayol ustozlarini qattiq qo'riqlaydi", deb hazil qilishardi. Men buni Xayrulla akaning oilaparvarligiga yo'yaman. Ular kafedrasiga o'z oilasini, qo'rg'onini qo'riqlagandek munosabatda bo'lardilar. Ular kafedraning og'irini doim o'z yelkalariga olganlar, kafedra a'zolariga tashqaridan yomon so'z kelmasligiga, kafedrada do'stona ma'naviy muhitni saqlashga harakat qilganlar. Har yili

<sup>3</sup> Turkiy adabiyot durdonalari. Yashar Kamol. 45-jild. Adabiy-badiiy nashr (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 320 b.; Turkiy adabiyot durdonalari. Xolida Adib Adivar. Chorasoz (qissa va hikoya). Said Foiq Abasiyoniq. Eftalikus qahvaxonasi (hikoyalar). 51-jild. Adabiy-badiiy nashr (to'plovchi, nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). –Toshkent: "O'zbekiston" nashr-ti, 2022.–344 b.

<sup>4</sup> Salomov G'aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish. darslik. –Toshkent: TDSHI, 2016. –192 b.; Salomov G'aybulla, Til va tarjima (monografiya). – Toshkent: TDSHI, 2016. –324 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov). Sharipov Jumaniyoz, O'zbekistonda tarjima tarixidan. –Toshkent: TDSHI. – 2017. –320 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov).



kafedramizga bir qancha yangi professor-o‘qituvchilar kelib ketmasin, ana shunday g‘iybatdan yiroq, do‘stona, ahil muhit, Xayrulla aka o‘rnatgan ko‘pgina an‘analarni hozir ham saqlanib qolgan. Yaxshi an‘analarni davom ettirishda ustozning chin shogirdi, kafedrani tashkil etishda Xayrulla aka bilan yelkama-yelka turgan insonlardan biri Nilufar Xodjayevaning xizmatlari katta. Shu ma‘noda, Xayrulla akadan nafaqat ilm, kasbiy faoliyat, balki hayotiy masalalarda ham ko‘p maslahatlar olaman. Ilm bilan bir qatorda, oilaparvarlikda ham ulardan o‘rnak olishga harakat qilaman.

Ushbu fursatdan foydalanib, quyida Xayrulla Hamidovning tavallud kuniga bag‘ishlab kafedramizda tayyorlanib tor doiraga mo‘ljallanib kichik adadda chop etilgan risolada<sup>5</sup> ustozlar, hamkasblari va shogirdlarining ustozga atab yozgan dil so‘zlaridan bir nechta parchani keltirishni joiz deb bildim. Filol.f.d., prof. **Ulfatxon Muhibova**: “Men bu mehnatdan tinmaydigan inson bilan tanishganimga o‘n besh yildan oshdi. Rus filologiyasini tamomlagan, lekin turk tilini o‘z ona tili darajasida o‘rganib, ko‘p kitoblar tarjima qilgan, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratgan, ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetuk mutaxassis sifatida bilaman. Xayrulla Hamidovning universitet miqyosida mehnat faoliyati ham juda serqirra. U Kasaba qo‘mitasida ham, turkiy tillar kafedrasida ham, institutda ilk bor “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida ochilganida mudir lavozimida ham ishlagan. Kafedra yangi bo‘lgani sabab yangi fanlarini mutaxassis topilmaganidan Xayrullajonning o‘zlari o‘quv va ishchi dasturlarni ishlab chiqib, talabalarga saboq berdi. Bir kuni unga “Shuncha bilim, tajriba egasiz, nimaga doktorlik ishini yozmaysiz?” – deb so‘raganimda, “Men ikkita doktorlik ishini yozib qo‘yganman, lekin himoya qilgim kelmaydi”, – deb javob berganlar, bundan hayratlanib “Ikkita dissertatsiyadan bittasini shart olib himoya qiling?!” degandim. Sal o‘tib, Xayrulla PhD dissertatsiyasi, oradan uch yil o‘tib DSc dissertatsiyasini ham muvaffaqiyatli himoya qildilar. Kafedradagi yoshlarni ilimga qiziqtirish, ilmiy maqolalar yozish, tarjima ishlarida talaba va magistrantlar, yosh ustozlarga yordam qilib, har yili ularning ilmiy maqola va tarjimalarini to‘plab nashr ettirish an‘anasi ham universitetimizda Xayrulla Hamidov boshlagan ishlardan hisoblanadi”.

Filol.f.d., prof. **Shorustam Shomusarov**: “Xayrulla Hamidov... U kishi hech qachon bekor yurmaydi, bekor o‘tirmaydi. Turli darajadagi to‘plandilarda ham jonajon kompyuteri bilan ish jarayonida bo‘ladi. Mana shunday g‘ala-g‘ovurlarda hech kimda bo‘lmaydigan, betakror fikrlar, g‘oyalar kelishi ham tahsinga sazovor, bu – bir necha yildan beri ishlov berilgan, toblangan yaxshi bir tajriba. Men bu ajoyib

<sup>5</sup> Xayrulla Hamidov (tarjimashunos, turkshunos olim, tarjimon Xayrulla Hamidov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan risola). – Toshkent: 2023. – 232 b.

insonning xushmuomalaligi, so‘zamolligi, xushchaqchqligi bois ancha yaqin bo‘lib qoldim. Xayrulla qanday his qiladi, bilmayman, lekin men bu inson bilan xuddi bolaligidan tanishdekman (xuddi shu fikrni ko‘pchilik aytadi, masalan Zuhridin Isomiddinov domla ham – N.I). Nafaqat mening nazarimda, balki ko‘pchilik ahli ilmlar e‘tiroficha, Xayrulla bugun ilm tarqatish pallasiga kirdi. Oxirgi yillarda ketma-ket turli darslik, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar e‘lon qilgani buning yaqqol dalilidir. Tarjimalari haqida alohida gapirsak, bizning tarjimonimiz ham ana shu mukammalikning hadisini olgan olim! Uning xoh ruscha, xoh o‘zbekcha va eng qiziqarlisi turkcha tarjimalari yuqoridagi barkamollik belgisi! Uning tarjimalarini o‘qir ekansiz, men shu joyida mana bunday aytgan bo‘lardim, deb aytolmaysiz! Har bir so‘z, har bir ibora, har imlo harakati o‘z o‘rnida, joyiga mos! Moshalloh!”

Filol.f.n., prof. **Adhambek Alimbekov**: “Xayrulla Hamidov haqida o‘ylaganimda kamtarin, ishiga mas‘uliyatli, do‘stlarga sadoqatli, ismi jismiga mos xayrli ishlarni xush ko‘ruvchi zahmatkash olim siymosini tasavvur qilaman. Men uni salkam o‘ttiz yildan beri bilsam, biror marta nimadandir noliganini eshitmaganman. U bilan ko‘p suhbatlashamiz. Xayrullada o‘ziga xos yumor bor. Hech kutilmaganda o‘xshatib askiya qilishi, yo o‘rnini topib turklarda mana bunday maqol bor, deya suhbatdoshiga jo‘yali javob qilishi mumkin. Xayrulladagi talabalarga bo‘lgan mehr, kuyunchalikni alohida ta‘kidlash kerak. U talabalar bilan ishlashdan og‘rinmaydi, qo‘lidan kelgan yordamini ayamaydi, ilmiy ishlarini ham, badiiy tarjimalarini ham kitob qilib talabalarga tarqatishdan zavq oladi, hecham charchamaydi. U hech qachon mansab ketidan quvmadi, aksincha “amal kursisi” uni izlab yuradi. U kafedra mudiri bo‘ladimi, magistratura bo‘yicha dekanmi yoki universitet kasaba uyushmasi raisi vazifasida faoliyat yuritadimi, doimo o‘zligini unutmadi, atrofida gilarga hamisha birdek munosabatda bo‘ldi, shu bois ham univesitetda uning hurmati baland. Uning o‘ziga yarashgan jinday o‘jarligi bo‘lsa-da, shu vaqtga qadar biror kishining dilini og‘ritmagan. Oilasi tom ma‘noda ziyoli oilasi, farzandlarida ilmga mehr uyg‘ota olgan oila boshlig‘i”.

Filol.f.d., prof. **Jasur Ziyamuhamedov**: “Xayrulla Hamidov ismi katta harf bilan yoziladigan “Hazrati inson!” U kishi hayoti davomida juda ko‘p savoblar olgan. Yetimlarni boshini silagan, ularga g‘amxo‘rlik qilgan. Jigarlari uchun ko‘p beminnat yaxshiliklar qilganining guvohiman. Ikkinchidan u oilaparvar kishi. Farzandlari tarbiyasiga “gap yo‘q”. Alhamdulillah! Kuyovlari haqidaku, gapirma ham bo‘ladi. Bu yigit to‘g‘risida juda ko‘p olqishlarni eshitganman. Bu odam do‘stlikka xiyonat qilmaydi... Manfaatni o‘ylamaydi... Agar insondagi makkorlikni sezib qolsa, u bilan aloqani uzib qo‘ya qoladi... Ko‘ngli pok, boshqalarga g‘ayri yo‘qligi sabab shundaylarni xush ko‘radi. Xayrulla Xamidovning qalami o‘tkir, zukko, g‘ayratli, kamtarin, ma‘rifatli va madaniyatli olim. 2010-2013-yillarda u kishi bilan bir grantni

boshqardik, kitoblar yaratdik. Lekin afsuski, bu mehnatimizni kimlar bildi, kimlar bilmadi... Xayrulla akam muharrirlik qilgan kitobdan aslo xato topa olmaysiz. Rus tilida bo‘ladimi, o‘zbek yoki turk tilidami, u kishi har bir ishni juda mohirona va sinchkovlik bilan tahrir qiladilar, tekshiradilar, kerak joyiga sayqal berib boradilar. Xayrulla akamning har bir yozgan kitoblari va hattoki yozgan ilmiy maqolalari alohida bir asar, buni o‘qigan biladi... U mohir tarjimon, sohaga alohida e’tibor, muhabbat, salohiyat va iqtidor X.Hamidovning nafaqat sohasini o‘zgatirib yubordi, balki u kishini el-yurtga tanitdi. U mehnatkash, vaqtni qadriga yetadigan inson! Qachon qaramang yonida kompyuter: yoki nimadir o‘qiyotgan, yoki nimadir yozayotgan bo‘ladi. Hatto “Covid” bilan yotganlarida ham tinch o‘tirmaganlar. G‘ayrati, shijoati, sabri va matonati kuchli inson! Men unga havas qilaman. Kitob javonimda X.Hamidov e’lon qilgan ko‘p nashrlari bor... Bir ko‘nglim mazkur nashrlarning nechog‘lik dolzarbligi haqida bir tahliliy maqola qilmoqchi ham bo‘ldim. Lekin buni akamning 70 yoshlariga qoldirdim, ungacha yana ancha nashrlari bo‘ladi, inshaalloh!”

PhD, dots. **Nilufar Xodjayeva**: “2011-yil yozida institutimizda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi ochilyapti degan xabarni eshitdim-u, qadrdon institutimga yo‘l oldim... U yerda yangi kafedraning mudiri – Kasaba uyushmasi raisi Xayrulla Hamidov ekan... Uyushmada o‘tirgan bu insonni men birinchi marta ko‘rib turardim... Xayrulla aka bilan hamkasb bo‘lishimda Ergash Ochilov, Sirojiddin Nurmatov, Dilfuza Axmedova, Jasur Ziyomammedovlarni Alloh sababchi qilgan, barchalaridan Alloh rozi bo‘lsin. Bir qancha talabgorlar ichidan Xayrulla aka va Jasur aka birgalikda meni ishga qabul qilishdi. Yangi kafedra, asosiy shtatda Xayrulla aka va men. U kishi devor oqlagan, eshik o‘rnatgan, men esa chang artgan, pol artgan – bir amallab kafedrani ta’mirlab, tozalab oldik. Yangi kafedra hujjatlari “0”dan qilina boshlandi... Mana 12 yilni yelkama-yelka turib o‘tkazdik: yig‘ladik ham, kuldik ham, urishdik ham, dardlashdik ham... Xayrulla aka doim “har bir qo‘y o‘z oyog‘idan osiladi” deb bizni ishlatar edilar, ammo oxirida: “Meni orqamda turadigan hech kimim yo‘q, sizlarning orqangizda esa men borman”, degan gaplari hozirgacha amalda. Kafedraning har bir a’zosini qo‘llab-quvvatlaydilar. Qizlar Nargiza Ismatullayeva, Saida va men ishdan bo‘shaymiz deb ariza yozardik, ammo keyin bilsak arizalarimiz hech qayerga yetib bormas, “kolleksiya” bo‘lib haliyam ustozning seyflarida saqlanar ekan (seyf esa hozir ham kafedra mudirining xonasida turadi, kaliti esa haliyam Xayrulla Hamidovda ☺). Sharq tarjimashunosligi rivojida Xayrulla akani asoschi sifatida e’tirof etsak o‘rinli bo‘ladi. Shu kunga qadar tarjima-shunoslik fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyoti deysizmi, mutaxassis deysizmi, badiiy tarjima yoxud imiy konferensiya deysizmi, barchasining boshida Xayrulla Hamidovni ko‘rasiz. 2019-yil oktabrda ilmiy ishim himoyasida Ustozning juda ko‘p mehnatlari

singgan. Yakuniy soʻz aytish davomida “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini mudiri Xayrulla Hamidovning ismlarini aytolmay koʻzimga yosh kelgan, tomogʻimga “tosh” tiqilgan edi... Ustoz haqida qancha gapirsak oz... Xayrulla aka oqkoʻngil inson, talabchan ustoz, vafodor shogird, oriyatli hamkasb, mohir tarjimon, taniqli olim, mehribon ota, bagʻrikeng bobo... Bu sifatlarning barchasi birgina insonda mujassam. Eslashga arzigulik koʻp xotiralarimiz bor, bular hali boshlanishi...”

Filol.f.d. **Dilfuza Ahmedova**: “Sharq tarjimashunosligi deganda, shu kafedrani shakllantirgan, uni shu darajaga yetkazgan ustoz Xayrulla Hamidov koʻz oʻngimda gavdalanadi. Ustozni tanibmanki, kompyutersiz koʻrmaganman. Ilgari bunga ahamiyat bermas ekanman. Hozir yanada yaqindan tanib, birga ishlaganimdan beri angladimki, ustoz tinmay mehnat qilar ekanlar. Shogirdlarga gʻamxoʻrlik, kafedra uchun jonbozlik, ustozlariga cheksiz hurmat va h.k. Bu jihatlarning adogʻi yoʻq”.

Filol.f.d., dots. **Hulkar Mirzaxmedova**: “Men endigina kafedra mudiri boʻlib qiynalib yurganimda Xayrulla Xudoyorovich “Siz jadvallarga unchalik boshingizni qotirmang, uni yaxshi va sifatli toʻldirish shart emas, chunki bu jadvallarni toʻldirib berishingiz bilan yana boshqasi keladi. Siz, avvalo, darslarning sifatini oʻylang, oʻqituvchilarni qattiq nazorat qiling, eng asosiysi darslar sifatini taʼminlash, – derdilar, – Men avvaliga ozgina hayron boʻlganman, chunki u kishining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini boʻyicha beradigan hisobotlari hammanikidan zoʻr boʻlib chiqardi. Qanday qilib bu qadar ishlash mumkin, deya hayron boʻlar va u kishidagi shijoatni koʻrib, havasim kelardi... Xayrulla akani koʻpchilik qattiqqoʻl, diktator rahbar, derdi. Men esa talabchan rahbar degan boʻlardim. U kishi oʻzi shunaqa: baʼzida oddiy gapni ham pafos bilan gapiradilar. Lekin har bir soʻzda otalar-cha mehribonlik boʻladi. Shu bois men u kishiga “papul”, yaʼni “otaginam”, – deb murojaat qilaman... U kishining shunchaki gaplashib oʻtirganlarini koʻrmaganman. Kunning qaysi vaqtida uchratmang, faqat oʻz noutbuklari bilan... Buning natijasi oʻlaroq, har oy u kishi tayyorlagan bitta adabiyot nashr yuzini koʻradi... Xayrulla akani “Eng vafodor” degan nominatsiyaga tavsiya qilgab boʻlardim: “Eng vafodor oila boshi”, “eng vafodor doʻst”, “eng vafodor xodim” va asosiysi, “eng vafodor shogird”! Xayrulla aka ustozimiz A.Mannonovning etaklarini bir tutdilar-da, qoʻyib yubormadilar. Har qanday kunda: xursandchilik, yaxshilik, yubiley va boshqalarda oʻz vafodorliklari bilan munosabat qaytardilar. Ayni kunlarda ham imkon topildi, deguncha ustozlarining oldilariga shoshiladilar. Izzat koʻrsatgan albatta izzat topadi, deyishadi. Xayrulla aka nisbatan kechroq PhD dissertatsiyasini yoqladilar. Oʻsha kezlari ularga PhD deb murojaat qilish biroz noqulay edi, Yaratganga behisob shukr, tezlik bilan DSc dissertatsiyasini himoya qildilar. Xayrulla Hamidov va Jasur Ziyamuhamedovlarning himoyalari 2021-yilning eng namunali dissertatsiya himoyalari, sifatida eʼtirof etildi”.



Turkiyalik olim, kafedra ustozu PhD. **Çetin Yıldız**: “Hayrullah Hoca Türk Filolojisi bölümünün de fahri bir üyesi sayılır... 2022 yılının Eylül ayından itibaren aynı bölümde çalışma şerefine nail olduğum hocamızı daha yakından tanıma fırsatı buldum. Benim için Hayrullah hocamızın en dikkat çeken özelliği üretken bir akademisyen olmasıdır. Türk edebiyatında Osmanlı Devletinin son dönemlerinde yaşamış, önemli yazarlarımızdan olan Ahmet Mithat Efendi için “yazı makinesi” denmektedir. Ona bu lakabın verilisinin sebebi ise Ahmet Mithat’ın çok üretken biri olmasındandır. Ben de bölümde çalıştığım andan itibaren yakinen şahit oldum ki Hayrullah hoca oldukça üretken biri. Bu yüzden de yazımın başlığını bu şekilde koydum. Hocamızın dikkate değer bir diğer özelliği de işini ciddiyetle yapan bir akademisyen olmasıdır. Lisans öğrencilerinin bitirme tezlerini dahi itinayla okuyup bilimsel değerlendirmesini dikkatli bir şekilde yapmaktadır. Bu durum aynı zamanda hocamızın şahsiyetine dair ipucu vermektedir. Hocamızın işine verdiği önemi gösteren bir diğer anım ise onun tercüme eserlerinden birini okumam ile ilgilidir. Turksoy tarafından bastırılan Said Ahmed Seçme Hikayeler isimli çalışmanın tercümanı Hayrullah hocamızdır. Özbek bir yazara ait bir eseri Türkiye Türkçesi ile okurken hocamızın maharetine, yeteneğine hayran kaldım. Olağanüstü bir itina ile hazırlanmış çalışma aktarma olmasına rağmen oldukça akıcı bir üslupla ve kusursuz bir tercümeyle hazırlanmıştır. 60 yıllık bir ömre onlarca çalışma sığdırmış olan hocamıza öncelikle Türk ve Özbek dilleri arasındaki sağlam bir köprü olma rolünden ve ettiği hizmetlerden dolayı minnettarım. Bu vesile ile 60. yaşınızı tebrik eder, ömrünüzü sağlık ve afiyet içerisinde geçirmenizi dilerim”.

PhD. **Mehriniso Qayumova**: “X.Hamidov sharofati bilan litsey o‘quvchilari ilk bor turk tili darsligiga ega bo‘ldi. Biz har yili X.Hamidovning yangi nashrlarini kuzatib borar, ulardan darslarda unumli foydalanar edik. X.Hamidov nafaqat litsey, sharqshunoslik universiteti miqyosida, balki respublika miqyosida turk tili bo‘yicha nazariy bilimlarning asoschisi hisoblanadi. Domlanning o‘nlab o‘quv qo‘llanma va darsliklari qanchadan-qancha ilmi toliblarning turk “tilini chiqargan”, tarjimon, tilshunos qilib yetishtirgan! X.Hamidovni Tarjimashunoslik kafedrasining otasi, deb atasam mubolag‘a bo‘lmaydi. Hayotining eng unumli yillarini, butun ilmini, kuchquvvatini bu kafedraning rivojiga bag‘ishlagan X.Hamidovning mehnatini hozirgi kunda ham kafedraning har bir hujjatida ko‘rishimiz mumkin. Domla nihoyatda savodxon, har ishni talab darajasida bajaradi. Turk va rus tillarida ham o‘z ona tilidagidek ish yurita oladi. Domlanning tarjimashunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Respublika miqyosida turk tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan turk tiliga qilingan eng ko‘p badiiy tarjima asarlari X.Hamidovning qalamiga mansubdir. Domla badiiy asarlarni tarjima qilish bilan birga, tarjima nazariyasi, tarjima stilistikasi va tanqidi, turk tili paremiologiyasi, sinxron tarjima singari ko‘plab tarjimashunoslik

fanlarning ilmiy-nazariy bazasini o‘zbek tilida yaratib, yildan-yilga rivojlantirib kelmoqda.

2019-yilda Tarjimashunoslik kafedrasida o‘z faoliyatimni boshlagach, X.Hamidovni yaqindan tanishga musharraf bo‘ldim. Talabchan, o‘z ishiga mas’uliyatli, halol, mehnatkash, hech kimdan yordamini ayamaydigan kafedra mudiri sifatida tanidim domlani. U menga universitetda pedagogik va ilmiy faoliyatimda ustozlik qildi. Men ko‘p narsani undan o‘rgandim. X.Hamidovni oqko‘ngil, iltifotli, haqiqatgo‘y, oilaparvar, oqibatli va saxiy inson sifatida bilaman. Uning o‘z ustozini, ilmiy rahbari f.f.d., prof. A.Mannonovga bo‘lgan sadoqati va hurmati alohida tahsinga loyiqdir”.

PhD. dots. **Dilshoda Muborakova:** “Taqdir Xayrulla Hamidov kabi qalbi ilm va ijod bilan yo‘g‘rilgan insonni tanish baxtini menga ravo ko‘rganidan mamnunman... Uning uchun talaba ham, kichik ilmiy xodim ham, akademik ham birdek. Shu sababli kattayu kichik ilm ahli hech tortinmasdan domla qabuliga kirib kelaverardi. Ustoz haqiqiy fan fidoyilarini hurmat qilar va ularga ilm bilan shug‘ullanish uchun zarur sharoit yaratib berardi. Ustoz “Tarjima” kafedrasining tashkil etilishi va rivojlantirishiga salmoqli hissa qo‘shdilar va bu chamanga o‘zlari hali ham bog‘bondek ijodlari va izlanishlari bilan xizmat qilib kelmoqdalar.

PhD. **Adiba Mahamadtoirova:** Ustoz Hamidovni talabalik yillarimdan buyon bilsamda, magistraturada o‘qigan yilim yaqindan taniganman. O‘shanda magistratura bo‘limi boshlig‘i edilar. 2019-yil Xayrulla akaga ish so‘rab murojaat qilganimda “Hozir kafedrada xitoy tili yo‘nalishida bo‘sh o‘qituvchi shtati yo‘qligi, lekin tez-tez xabardor bo‘lib turishim mumkinligini” aytdilar. Esimda, o‘sha kungi qisqa suhbatimizda ham “*eng asosiysi, ilmiy ish qilishim kerak*”ligini maslahat berdilar. 2020-yildan kafedrada ish faoliyatimni boshladim. Hozirga qadar nafaqat o‘quv, balki ilmiy ishim jarayonida ham turli qiyinchiliklarga duch kelganimda yordamlarini ayamay, otamdek g‘amxo‘rlik qilib keladilar.

PhD. **Mohira Umarova:** Mening ilk ilmiy rahbarim Xayrulla aka bo‘lganlar. Yodimda, ustoz menga ham aytmasdan urdu tilidan o‘zbek tiliga qilgan tarjimamni “Oltin qalam” gazetasida nashr ettirganlar. Qo‘limga gazetani berganlaridagi quvonchimni so‘z bilan ta’riflash mushkul... Talabalik, magistrantlik davrimda ustozdan ko‘p narsa o‘rgandim, ammo doktorantlik davrimda va ayniqsa, himoyaga chiqish jarayonida Xayrulla aka chin ma’noda mening eng yaqin ustozimga aylandilar. Qanday vaziyat bo‘lishidan qat’iy nazar doim meni qo‘llab-quvvatladilar, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, o‘z maslahatlarini ayamadilar va doim menga “motivatsiya” berib turdilar. Hozirgacha barcha savollarimga javobni aynan Xayrulla akadan olaman. Menga ustozning shogirdi bo‘lish, birga ishlash baxti nasib qilganidan behad baxtiyorman.

**Jahongir Abdupattaxov:** “Xayrulla aka men uchun nafaqat ustoz, mohir, zardast pedagog, balki tug‘ishgan akadek g‘amxo‘r, yaqin do‘stdek samimiy maslahatgo‘y hamda chin insondir. Turli marosim va uchrashuvlarda Xayrulla aka bilan hamroh bo‘lishdan kishi o‘zida olam-olam zavq, badiiy go‘zallik bilan yo‘grilgan suhbatidan bahra oladi.

**Shahzoda Hasanova:** “Meni Xayrulla aka ishga qabul qilganlar. Avvaliga sizga ish yo‘q deganlar, so‘ngra men qat‘iyat bilan so‘raganimga “Mayli ishlayvering faqat oyliksiz ishlaysiz, bizda dars soatlari yo‘q” deganlar. “Menga oylik kerak emas, tekinga ham ishlayveraman” – deganimda menga ishonchlari ortdimi yo bilmadim oldilariga chaqirib rus guruhida xitoy tilidan dars o‘ta olasizmi dedilar. Men rozi bo‘ldim. Avvaliga 0,25 stavkaga ishga oldilar, bir haftadan keyin 0,50 stavkaga, 2 oydan keyin to‘liq 1 stavkaga qabul qilindim. O‘sha paytda menga bildirgan ishonchlari tufayli o‘z sevgan ishim “o‘qituvchilik”ka erishdim. Ustozimning bir ajib xislatlari bor, doim hammani qo‘llab-quvvatlaydilar. Bu esa yosh kadrlarga kuch-g‘ayrat, o‘ziga ishonch bag‘ishlaydi. U kishining yana bir xislatlari bor: kafedramizning psixologi. Hammani dardini eshitib, kerakli yechim topib beradilar. Shaxsan men bundan mamnunman... Men ilm yo‘lida bu ustozni uchratganimdan Yaratganga shukr qilaman. Men undan nafaqat ilmda o‘rnak olaman, balki oilaviy hayotimda ham bebaho maslahatlariga amal qilaman. Oilamning butun bo‘lishiga ustozimning otalarcha bergan maslahatingiz sabab bo‘lgan. U kishining nasihatlariga quloq solib yo‘l tutganman, farzand tarbiyasi, hatto ovqat tayyorlashimda ham maslahatlarining o‘rni bo‘lakcha. Ustozim, Siz menga doim o‘z otamdek mehribonsiz. Sizdek ustozini boshiga ko‘tarib e‘zozlaydigan shogirdlaringiz safi ko‘payaversin, biz olar oldida birinchilardan bo‘lib yuraylik.

**Iroda Fatxutdinova:** Xayrulla domlaning ismlari ularning baland va shovqinli ovozlari bilan birga 2012 yildan buyon xotiramda muhrlanib qolgan. O‘sha davrlarni xursandchilik bilan eslayman, negaki, domla talabchan bo‘lishlari bilan birga talabalarga juda mehribon ota bo‘lganlar. Biz talabalarni doimo har qanday vaziyatlarda qanotlari ostiga olib himoya qila olgan yagona ustozimiz bo‘lganlar. Yosh kafedraning ilk magistrant qaldirg‘ochi bo‘lganimdan g‘ururlanaman. Shuning uchun bo‘lsa kerak, kafedramizda yuragimning bir bo‘lagi qolib ketgan edi va bu yarmimga 2021-yil erishdim. Dastavval ushbu kafedraga ishga chaqirishganida bajonu dil rozi bo‘ldim va mana keldim, ishlayapman.

**Vazira Hamidova:** “Xayrulla Hamidov mening kafedra o‘qituvchisi bo‘lishimga sababchi bo‘lgan inson. Ustozning huzurlariga maslahat so‘rab kelgan hamkasblari bo‘ladimi, shogirdlarimi, maslahatlari, bilimlarini ayamasdan, hech birini quruq qaytarmaydilar. Kafedraga ishga kirganimda tarjimashunoslik sohasiga u qadar qiziqmasdim, lekin shu kishi sababli sohaga qiziqishim ortdi. Garchi bu sohaning

ko‘plab vakillari bir qancha ilmiy ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, hozir tarjima, tarjimashunoslik deganda ko‘z oldimga Xayrulla Hamidov va ularning faoliyatlari keladi. Ustozni sharq tarjimashunosligi ning asoschisi deb bilaman... Ustoz haqida bir kitob yozsak kam...”

**Oybek Jumaboyev:** “Professional tarjimon sifatida ustozning bir oliyjanob xislatlari – ustoz-shogird an‘analariga amal qilgan holda talaba va magistrantlarni tarjima sohasiga jalb qilishlaridir. O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning she‘rlarini turk tiliga tarjima qilish jarayoni yodimdan chiqmaydi. Shoirning bir qancha she‘rlarini turkchaga o‘girib ustozga olib bordim. O‘sha zahotiy oq tarjimalarni tahrir qilishga kirishib ketdilar. U kishi tarjimaga o‘ta talabchanlik bilan yondashdilar, doimo tarjimada muallif huquqini himoya qilishga chaqirar edilar. Ertasiga tarjimaning tahrirlangan matnini olgach, mening tarjimam bilan oxirgi variant orasida farq borligini, endi shoir fikri turkchada yanada aniqroq ifodalanganini his qildim. O‘shandan so‘ng menda nashr qilinadigan ishlarda talablar yuksak darajada bo‘lishi kerak degan fikr paydo bo‘ldi”.

**Gulnoza Nazrullayeva:** “...o‘qishga kirdim. Ilk kun ustoz Xayrulla aka bizga ulkan zafarlar tiladilar, qanday o‘qish, talaba qanday bo‘lishi kerakligi haqida ko‘p gapirdilar. Men esa ularni gapirayotgan har bir gaplarini qiziqish bilan eshitar va xayolimdan shunday gaplarni o‘tqazardim “Men ham shunday olim, shunday chiroyli gapiradigan yetuk inson bo‘larmikinman?”. Chunki ustozim Xayrulla aka shunday chiroyli, ravon gapirar edilarki, odamning havasi kelar edi...”

**Kamola Rasulova:** “Ustoz... Bu so‘zda donolik, sabr va mehr bor. Ustoz deganda, shogird ko‘nglida chuqur hurmat-ehtirom, tuganmas minnatdorlik tuyg‘usi, hech qanday boylik, molu-davlat bilan ado etib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi... Ustoz oqko‘ngil, samimiy va otalarcha mehribon bo‘lishlariga qaramay, kezi kelganda qattiqqo‘l va talabchan inson. O‘z yumushi bilan kelgan hech kimni umidsizlantirmaydilar... Xayrulla akaga nisbatan o‘z kasbiga fidoyi, mehnatlari evaziga hech narsa talab qilmaydigan, jonkuyar, shogirdlari yutuqlariga hammadan ko‘p quvonadigan, samimiy, halol degan ta‘riflar o‘rinli. Talabalik davrlarimiz ustoz har birimiz bilan alohida-alohida ishlar, guruhda 12 ta talaba bo‘lsak-da, har birimiz bilan uning tarjimasida ustida ishlab, erinmay kamchilik, xatolarini tuzatardilar. Hamma narsa odil bo‘lishi, barcha darsdan mamnun ketishiga e‘tibor berardilar. U kishining sa‘y-harakatlari bilan guruhdagi barcha talabalarning tarjimalari to‘plamda chop etilardi... Ustozim yozgan kitoblarini mutolaa qilar ekanman uni “bilimlar xazinasi” degim keldi. Tinimsiz o‘z ustlarida ishlashlari, yangi-yangi kitoblar yaratishga ishtiyoqlari bizlarga ham ilhom beradi, munosib shogird bo‘lib yetishishga undaydi”.

Kafedramizning 2023 yilda bitirgan talabalari ustozni qutlab shunday yozishibdi: “Biz ustozimiz Xayrulla Hamidov bilan 4 yil muqaddam “Tarjimashunoslik”



kafedrasiga ilk qadam qo‘ygan kunimiz tanishishga musharraf bo‘lganmiz. O‘z kasbini jonidan ortiq sevuvchi, unga umrini baxshida etadigan ijodkor ustoz shu kuni bizga universitetning ilk, ya’ni mustaqillik darsini o‘tib berdilar. Tarjima olamiga kirib kelganimiz, bizga bo‘lgan yuksak ishonch ekanini mamnuniyat bilan ta’kidlaganlari kechagidek esimizda. Shu kuni kafedramizning boshqa o‘qituvchilari bilan ham tanishtirib, ularni bizga namuna qilib ko‘rsatdilar. Ustoz to bugungacha bizdan o‘z bilim, tajribalarini ayamadilar. Darslarimiz davomida nimanidir tushunmay ulardan yordam so‘rab borganimizda ham savolimizga javob topmasdan qaytarmaganlar. Ustozning ajoyib jumalari bor: “Har bitta ustoz uning etagini qo‘yib yubormay, ortidan qolmay, savoliga javob topmaguncha yoniga kelaveradigan o‘quvchisi, shogirdi bo‘lishini xohlaydi”. Ustozimizning bizga bergan bilim va tajribalari, hayotiy maslahatlari kelajak hayotimizda katta yordam berishiga ishonamiz”.

Ustozimizni muborak 60 yoshlik tavallud ayyomlari bilan chin qalbimizdan tabriklab, u kishiga uzoq, farovon va baxtli umr kechirib, farzandlari baxtu kamolini ko‘rib yurishlari, bilimli, barkamol shogirdlarni yetishtirishlari, yangi ilmiy tadqiqotlar ijod etish, ko‘plab ajoyib tarjimalarni amalga oshirishlarida kuch-quvvat, sabr-matонат tilaymiz. Yaratgan ustozimizga ajoyib farzandu nabiralari bergan, aqlu-farosat, shijoat va g‘ayrat bergan, sabr-qanoat va shukr qilishlik ne‘matini ham ato etgan. Ilohim shu ne‘matlar aslo ularni tark etmasin!

**MANBA:** Xayrulla Hamidov (tarjimashunos, turkshunos olim, tarjimon Xayrulla Hamidov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan risola). – Toshkent: 2023. – 232 b.